

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3 049 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 944 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,0 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 322 tasi (10,6 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 285 tasi (9,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 272 tasi (8,9 %) kiyim ishlab chiqarishga va 209 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- avgust holatiga ko‘ra



II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 19 679,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 679,2	107,3
Nukus sh.	5 241,5	106,8
Amudaryo tumani	906,5	98,3
Beruniy tumani	810,9	113,1
Bo'zatov tumani	36,7	108,7
Qorao'zak tumani	703,9	109,4
Kegeyli tumani	224,8	101,1
Qo'ng'iro't tumani	1 021,8	107,7
Qanliko'l tumani	398,9	109,4
Mo'ynoq tumani	294,0	89,6
Nukus tumani	450,9	144,5
Taxiatosh tumani	2 438,8	108,1
Taxtak'o'pir tumani	303,1	126,2
To'rtko'l tumani	569,1	110,6
Xo'jayli tumani	422,1	109,4
Chimboy tumani	358,7	114,6
Shumanay tumani	143,5	95,7
Ellikqal'a tumani	488,9	109,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (14 956,3 ming so'm), Taxiatosh tumanida (31 327,1 ming so'm), Qorao'zak tumanida (12 857,1 ming so'm), o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (9 565,4 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida (142,1 %), Taxtako'pir tumanida (126,1 %), Chimboy tumanida (114,2 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
Yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 16 603,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,4 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 353,9 mlrd so'm (1,8 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 603,7 mlrd so'm (13,2 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 118,4 mlrd so'm (0,6%) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-iyul oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyul oylarida respublikada 11,0 ming tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-iyul oylariga 56,2 % ga ko‘paygan), 10,1 ming tonna ip kalava (55,7 % ga ko‘paygan), 903,9 tonna makaron (51,1 % ga ko‘paygan), 563,0 mln kub metr tabiiy gaz (24,3 % ga ko‘paygan), 27,0 ming tonna bug‘doy uni (7,1 % ga ko‘paygan), 129,6 ming tonna dinatriy karbonati (4,5 % ga kamaygan), 584,9 ming tonna portlandsement (6,0 % ga kamaygan), 1609,7 ming litr aroq (7,7 % ga kamaygan), 2 049 tonna o‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (9,2 % ga kamaygan), 2,5 ming tonna o‘simlik yog‘i (25,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyul *	2025 yil yanvar-iyul *	2026 yil yanvar-iyul
Portlandsement, tonna	506 733	621 960,4	584 875
Paxta tolasi, tonna	24 934,3	7 037	10 991
Tozalangan o‘simlik yog‘i, tonna	1 232,2	3 280	2 461
Bug‘doy uni, tonna	36 514,9	25 212,0	26 998,6
O‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	3 758	2 257	2 049
Aroq, ming l 100% li spirt	1 854,9	1 743,6	1 609,7
Ip kalava, tonna	17 824	6 513,1	10 142,1
Tabiiy gaz, mln kub m	548,2	452,8	563,0
Dinatriy karbonati, ming t	139,3	135,7	129,6
Makaron, tonna	947	598,3	903,9

**2024-2025 yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.*


Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,7 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,4 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2025-yilning yanvar-iyul oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 30,5 % ni (32,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 9,2 % ni (10,5 %), quyi texnologiyali 60,3 % (56,5 %) ni tashkil etgan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-iyul oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 100,1 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 79,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyul *	2025 yil yanvar-iyul *	2026 yil yanvar-iyul
Elektrenergiya, mln.kvt.s	3 140,4	2 678,6	2 682,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	27,8	21,2	16,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	92 958,2	99 058,9	110 173,7

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 67,0 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 61,7 % ga, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 36,1 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyul *	2025 yil yanvar-iyul*	2026 yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	5 223,8	5 619,5	9 382,3
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	7 433,6	8 609,7	11 718,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	45 283,5	49 819,9	80 560,3

**2024-2025 yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
